

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOIYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

ANALYSIS OF VIEWS ON THE MATERIAL CULTURE OF THE UZBEKS OF THE FERGANA VALLEY

Karimbayeva Salomatkhon

Associate Professor, Department of Social Sciences,
Namangan State Technical University

Iskhakov Bekhzod Barkamalovich

Associate Professor, Department of Social Sciences,
Namangan State Technical University

Abstract. The article explores the ethnological aspects of the material culture of the Uzbeks of the Fergana Valley. The study analyzes the main components of material culture – dwellings, clothing, jewelry, and food – not only in a descriptive manner but also in relation to their close connection with social life and cultural values. Symbols, signs, religious-philosophical views, and beliefs embodied in material culture serve as essential sources for understanding the social way of life of the ethnos. Particular attention is given to national housing architecture, the ecological, social, and economic factors influencing its development, as well as the traditional customs and beliefs of the Uzbeks. Drawing on the theoretical perspectives of Abu Nasr al-Farabi, Abu Ali Ibn Sina, B. Malinowski, and M. Mauss, the research substantiates the interpretation of material culture as an integral part of social life.

Keywords: Fergana Valley, Uzbeks, material culture, dwelling, clothing, jewelry, food, symbol, belief, ethnology, national values.

FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI

Karimbayeva Salomatxon

Namangan davlat texnika universiteti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dotsenti

Isxakov Bexzod Barkamalovich

Namangan davlat texnika universiteti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona vodiysi o'zbeklarining moddiy madaniyatiga doir qarashlar etnologik tahlil qilinadi. Tadqiqotda moddiy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari – turar joylar, kiyim-kechak, taqinchoqlar, oziq-ovqat mahsulotlari – nafaqat tavsifiy jihatdan, balki ularning ijtimoiy hayot va qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligi asosida o'rganiladi. Moddiy madaniyat namunalari aks etgan ramzlar, belgilar, diniy-falsafiy qarashlar va e'tiqodiy tasavvurlar etnosning ijtimoiy turmush tarzini anglashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, milliy uy-joy me'morchiligi, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillar, shuningdek, o'zbeklarning qadimiy urf-odat va e'tiqodlari keng yoritiladi. Tadqiqotda Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, B. Malinovskiy, M. Mauss kabi mutafakkir va olimlarning nazariy qarashlari asosida moddiy madaniyatni ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida baholash ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, o'zbeklar, moddiy madaniyat, turar joy, kiyim-kechak, taqinchoqlar, oziq-ovqat, ramz, e'tiqod, etnologiya, milliy qadriyatlar.

Kirish. Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyoning eng qadimiy va madaniy jihatdan boy hududlaridan biri hisoblanadi. Bu hudud o'zining qulay geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan ajralib turadi. Shu boisdan ham vodiyning moddiy madaniyati — xalqning yashash tarzi, xo'jalik faoliyati, uy-joy qurilishi, kiyim-kechak, hunarmandchilik, an'anaviy mehnat vositalari va boshqa kundalik hayotiy buyumlarida o'z aksini topgan. Moddiy madaniyat — bu xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan va uning hayoti, urf-odatlari hamda ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Farg'ona vodiysi o'zbeklarining moddiy madaniyati nafaqat ularning turmush tarzini, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va ma'naviy olamini ham o'zida mujassam etadi. Mazkur mavzu bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar Farg'ona vodiysi aholisi hayotida moddiy madaniyatning o'rnini aniqlash, uning tarixiy ildizlari va zamonaviy davrda tutgan ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan. Shu bilan birga, xalqning milliy o'ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida moddiy madaniyatni o'rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Etnologik tadqiqotlarda moddiy madaniyatni o'rganish xalq turmush tarzining eng muhim jihatlarini ochib berishda muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. Ilmiy adabiyotlarda turar joylar, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar va oziq-ovqat mahsulotlari odatda grafik tasvirlar, chizmalar, rangli fotosuratlar va rejalar asosida batafsil tavsiflanadi. Biroq bu ma'lumotlar etnologik tadqiqotlarning asosiy maqsadi emas, balki asosiy ilmiy g'oyalarni yoritishga yordam beruvchi tavsifiy vosita sifatida qaraladi. Moddiy madaniyatning ilmiy tahlilida jahon etnologiyasida shakllangan nazariy yondashuvlar muhim o'rin egallaydi. Mashhur antropolog B. Malinovskiy "Madaniyatning ilmiy nazariyasi" asarida madaniyat insonning biologik ehtiyojlarini qondirish jarayonida shakllanishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, turar joy qurilishi, kiyim-kechak tikish va oziq-ovqat tayyorlash insonning oddiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi, biroq bu jarayonda ishlab chiqarish munosabatlari va ijtimoiy aloqalar vujudga kelib, madaniyatning mazmunini belgilaydi. Fransuz olimi M. Majet esa moddiy buyumlarni faqat utilitar predmet sifatida emas, balki ularni yaratgan va foydalanuvchi kishilarning ijtimoiy munosabatlari, dunyoqarashi va diniy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq holda tadqiq etish lozimligini ta'kidlagan.

Sharq mutafakkirlari ham moddiy madaniyatning mazmunini keng ilmiy asosda yoritib berganlar. Abu Nasr Forobiy turar joy qurilishi ko'plab geometrik uslublarga ega bo'lishini qayd etib, me'morchilikni "tarx tuzish san'ati" sifatida izohlaydi. Abu Ali ibn Sino esa uy qurilishida shamol yo'nalishi, suv manbalarining sifati va atrof-muhitning inson salomatligiga ta'sirini inobatga olish zarurligini alohida ta'kidlagan. Bu qarashlar moddiy madaniyatning nafaqat maishiy, balki falsafiy, ekologik va ijtimoiy qirralarini ochib beradi. Metodologik nuqtai nazardan moddiy madaniyatni o'rganishda bir qator yondashuvlar qo'llaniladi. Birinchidan, tavsifiy-etnografik metod orqali turar joylar, kiyim-kechaklar va taomlar tashqi ko'rinishi va funksional xususiyatlari bo'yicha qayd etiladi. Ikkinchidan, funksional tahlil buyumlarning inson ehtiyojlarini qondirishdagi vazifalarini aniqlashga xizmat qiladi. Uchinchidan, ramziy-semantik yondashuv moddiy buyumlarda mujassam bo'lgan timsollar, e'tiqodiy tasavvurlar va qadriyatlarni ochib beradi. To'rtinchidan, ekologik-etnologik metod moddiy madaniyatning shakllanishida tabiiy-geografik muhit va ekologik sharoitlarning ta'sirini tahlil qiladi. Nihoyat, qiyosiy tarixiy metod orqali vodiy o'zbeklari moddiy madaniyati boshqa xalqlar tajribasi bilan solishtiriladi. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili va metodologik yondashuvlar shuni

ko'rsatadiki, moddiy madaniyatni faqat tavsiflash bilan chegaralanmasdan, uni xalqning turmush tarzi, diniy-falsafiy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari va milliy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etish etnologiya fanining asosiy vazifalaridan biridir.

Muhokama. Etnologik tadqiqotlarda moddiy madaniyat (turar joylar, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar va oziq-ovqatlar)ni odatda grafik tasvirlar, rejalar, chizmalar va rasmlar, rangli fotosuratlar ko'magida batafsil ta'riflash va tavsiflash va ilmiy jihatdan tahlil qilish o'ziga xos an'anaga aylanib bo'lgan. Lekin, aslida bu ma'lumotlar ilmiy etnologik tadqiqotlarning bosh maqsadi emas, balki eng asosiy maqsadni isbotlashga ko'maklashuvchi tavsifiy bir vosita sifatida xizmat qiladi. Etnos moddiy madaniyatini etnologik yo'nalishda tadqiq etishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'rganilayotgan obyektning xalq ijtimoiy turmush tarzi bilan aloqadorligini yoritib berishdan iboratdir. Chunki, moddiy madaniyatning turli-tuman namunalari insoniyat mehnati va ehtiyoji asosida yaratilsa-da, lekin uning ongli tafakkuri natijasi o'laroq u yoki bu ko'rinish hamda shaklni oladi. Shak-shubhasiz, bu o'rinda moddiy madaniyat namunalarida aks etuvchi ramz, belgi, timsol, g'oyalar ko'rinishida ham e'tiborga loyiq bo'lib, bu bevosita u bilan bog'liq tasavvur, e'tiqodiy qarashlarni tahlil qilishda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, etnologlar uchun moddiy madaniyat namunalarining alohida bironta tavsifi emas, balki ularning inson hayoti bilan o'zaro aloqadorligi qiziqarli hisoblanadi[1].

Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar moddiy madaniyatning faqat tavsifiy xususiyatlari bilan chegaralanib qolganida edi, ilmiy ishlardagi o'ziga xoslik juda tez muddatda unutilib ketar edi. Kiyim-kechaklarni etnografik aspektida ilmiy jihatdan tadqiq etish bichish-tikishga doir qo'llanmaga, taomlarni o'rganish bo'lsa oziq-ovqatlar retseptlari to'plamiga, turar joylar va manzilgohlarni tadqiq qilish – arxitektura darsligining biron-bir bo'limiga aylanib qolar edi. Xuddi shu masalada biz uchun jahonga taniqli antropolog B. Malinovskiyning madaniyat nazariyasiga doir qarashlari nihoyat darajada qiziqarli bo'lib, uning *“Madaniyatning ilmiy nazariyasi”* nomli mashhur kitobida “madaniyat faqatgina insonlarga xos biologik xususiyat bo'lsa-da, insonlar ham tirik jonzot hisoblanadi. Shu boisdan u o'zining biologik ehtiyojini qondirish maqsadida oziq-ovqat va yonilg'i singari kundalik ehtiyoj buyumlarini qidirib topadi, uy-joy quradi hamda kiyim-kechaklarni tikib kiyadi. Demak, u mazkur amallari orqali o'z atrofida ishlab chiqarish munosabatlarini shakllantiradi, bu holat fanda madaniyat deb yuritiladi. Turli madaniyatlar orasidagi o'zaro farq insonlarning turfa xildagi oddiy ehtiyojlarini qondirish usullari bilan izohlash mumkin. Shu sababdan ham madaniyat moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi” deb yozgan edi[2].

Shuningdek, taniqli fransuz olimi Marsel Majet haqli ravishda ta'kidlaganidek”, etnologlar uchun odamlar uchun ahamiyatga ega bo'lmagan (faqat moddiy jihatdan) predmet mavjud emas”. Biron-bir predmetni tadqiq qilish jarayonida, deb yozgan edi u, bu obyektни bevosita va bilvosita ishlab chiqarish, tarqatish, sotish va foydalanish imkoniyati, huquqi hamda vazifasiga ega bo'lgan barcha shaxslar e'tibordan chetda qolmasligi kerak[3]. Moddiy ashyo va buyumlar etnolog uchun predmetning ijtimoiy taomilga kirishi, ya'ni uni yaratgan va foydalanuvchi kishilarning ushbu narsaga munosabati va eng muhimi, bu predmet orqali o'zaro aloqalari, dunyoqarashi, diniy-falsafiy qarashlarsiz unchalik ham qiziqarli bo'lmazligi shak-shubhasizdir. Shu boisdan ham etnologiya ilmi turli-tuman jonsiz predmetlar, ashyolar xususidagi emas, balki odamlarning turmush tarzi to'g'risidagi alohida fan sifatida talqin etiladi.

Insoniyat moddiy madaniyatning muhim qismlaridan birini uy-joylar tashkil qiladi. Tarixiy va etnografik adabiyotlardan ham juda yaxshi ma'lumki, milliy uy-joylarni tiklash hamda jihozlash usullari mahalliy tabiiy shart-sharoitga, ko'chmanchi, yarimko'chmanchi, yarimo'troq, o'troq etnik guruhlarning turmush tarzi, xo'jaligi yo'nalishi, turli urf-odatlar, diniy e'tiqodi va milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq. Har bir etnos o'zining ma'naviy-estetik didi va milliy qadriyatlari asosida yashayotgan uy-joylarini jihozlaydi. O'z navbatida turar joylarni tiklash va yangi uyga ko'chib kirish bilan bog'liq urf-odatlar va marosimlar negizida ma'lum bir e'tiqodiy, diniy-falsafiy qarashlar hamda milliy qadriyatlar mujassamlashgan.

Buyuk mutafakkir Abu Nosir Farobiy uy-joy qurilishi nihoyatda ko'pdan-ko'p geometrik uslublarda bo'linishi, ularning orasida "quriladigan me'moriy obida tarxini tuzish san'ati" mavjudligini ta'kidlagan edi[4]. Shuningdek, Abu Ali ibn Sino turar joy me'morchiligida qurilajak uyning joyini, uning shamol yo'lga nisbatini, barpo etiladigan uy-joy yonidan o'tadigan suvning tarkibini, va yaqin atrofda turmush sharoitiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi manbalar bor-yo'qligini ham e'tiborga olish zarurligini alohida uqtirgan. O'rta Osiyoda har bir shahar va turarjoy me'morchiligi mana shu hududning tabiiy-ekologik sharoiti va iqlimi, xalqning iqtisodiy hamda ijtimoiy hayoti ta'sirida asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, rivojlanib borgan.

Natijalar. O'zbeklarda yashash makoni hisoblangan uy-joy, xususan, ota-bobolar yashagan joy shu oila uchun muqaddas dargoh hisoblangan va unga bolalik chog'lardanoq mehr-muhabbat qo'yilgan. Qolaversa, ota-bobolar yerining muqaddasligi borasida juda ko'p hikmatli so'zlar, matal maqol va rivoyatlar mavjudligidan boxabarsiz.

Milliy qishloq turar-joylari shakllanishi jarayonida ko'plab juda muhim hayotiy omillar bilan birga tashqi tabiiy-geografik muhitning, ya'ni, ekologiya ham ta'siri sezilarli holatda ekanligini esa etnolog olim N. Cheboksarov "Ekologiya va an'anaviy qishloq uy-joylari turlari" nomli asarida nihoyat darajada jiddiy tahlil qilgan edi[5].

Farg'ona vodiysi tog'oldi qishloqlarida uy-joy poydevori tog' yoxud soy toshlaridan samarali foydalangan holda quriladi. Chunki, shu tog'li hududlarda boshqa joylardagiga nisbatan ancha-muncha arzon va topilishi juda oson xomashyo hisoblangan toshlar yordamida yerto'lali uylarni qurish imkoniyati mavjud bo'lgan.

Turar-joyni ekologik nuqtai nazardan o'rganish oilaviy munosabatlar, xo'jalik va maishiy turmushning boshqa sohalari haqida ko'plab o'ziga xos muhim ma'lumotlar beradi. Milliy uy-joylarning qurilishi va rejasi ko'plab omillarga bog'liq. Geografik muhit, iqlim va suv yo'llarining bor-yo'qligi ularga birlamchi darajada ta'sir qilgan bo'lsa, ikkinchidan ijtimoiy-iqtisodiy daraja, dushman xavfining mavjud bo'lishi, ko'plab xalqlarning inson yashashi qulay bo'lmagan joylarda ham uy-joy qurib yashashga majbur etgan. O'zbeklarda yangi uyning joylashish o'rniga hamisha alohida e'tibor berilgan. Turar-joylarni doimo xosiyatsiz hisoblangan qabrston, ziyoratgohlar va aziz-avliyolar qabrlaridan uzoqroqda qurishga harakat qilingan. Qabrston va ziyoratgohlar aholining nazdida marhumlar ruhi to'planadigan maxsus bir joy hisoblangan. O'zbekistonda turar-joylar bilan bog'liq qarashlarda ajdodlar kultiga bo'lgan e'tiqod ham o'ziga xos ravishda namoyon bo'lgan. Aynan shu nuqtai nazardan vodiy o'zbeklari har bir eski uyni buzib, yangisini qurish jarayonida poydevorni tiklashdan avval bu xonadonda yashab o'tgan qadimgi ajdodlarning "mardona ruhi"ga bag'ishlab marosimiy jihatdan qurbonlik qilib, is chiqarilgan[6].

Turli kiyim-kechaklar moddiy madaniyatning umummilliy xususiyatlarini aks ettiruvchi omillaridan biri bo'lishi bilan birga urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba'zi bir elementlari, diniy e'tiqod, nafosat va estetik me'yorlarni ham o'zida ba'zida yaqqol, ayrim hollarda pinhona aks ettiradi. Kiyim – inson tanasini tashqi muhit ta'siri va turli mexanik ta'sirlardan asraydigan vositalar to'plamidir. U jins va yosh, milliylik va boshqa turli xususiyatlarni ham o'zida aks ettiradi.

O'zbek xalqining milliy kiyimlari va taqinchoqlari ham moddiy madaniyatning mushtarak muhim qismini tashkil etib, xalqning milliy xususiyatlari, urf-odatlari hamda estetik didini namoyon etib kelgan. Boshqa xalqlarning liboslari kabi o'zbeklarning milliy kiyimlari ham o'ta uzoq tarixiy jarayon davomida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, urf-odat, marosim, an'analar ta'sirida davrlar o'tishi davomida o'ziga xos tarzda shakllanib va rivojlanib kelgan. Elshunos olim N. Sodiqova ta'biri bilan aytganda, kiyim-kechaklar moddiy madaniyatning umummilliy xususiyatlarini aks ettiruvchi omillaridan biri bo'lishi bilan birga turli urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba'zi bir elementlari (unsurlari), diniy e'tiqod, nafosat va estetik me'yorlarni ham o'zida yaqqol aks ettiradi[7].

Umuman olganda, qadim davrlardan boshlab kiyim-kechak va matolar marosimlarda asosan, quyidagi vazifalarni bajargan:

- 1) Xavf-xatardan himoya, chegara, poklanish, muqaddaslik;
- 2) Bir yosh-tabaqa bosqichidan yo ma'lum ijtimoiy darajadan boshqasiga o'tishni boshqalarga anglatuvchi ramziy bir vosita;
- 3) Qimmatbaho ashyo, sovg'a, to'lov, "qurbonlik".

Bu funksiyalarning birini ikkinchisidan ajratib, alohida talqin qilish anchagina mushkul. Shu sababdan ham, quyida vodiy aholisi milliy marosim kiyimlari va ular bilan bevosita bog'liq urf-odatlarni ham tadqiq qilish asnosida kiyimlarning ushbu funksiyalari hamda u bilan bog'liq qarashlarini qiyosiy jihatdan ham tahlil qilishga harakat qildik.

XX asrning 90-yillaridan keyin mamlakatning dunyo jamoatchiligi bilan erkin, doimiy aloqada bo'lishi natijasida vohada ba'zan mahalliy an'analarga yot bo'lgan turli kiyim-kechaklar ham kirib keldi. Jumladan, Respublikamiz istiqloлга erishganidan keyin bir tarafdin, inson tanasini yarim yalang'och holda ko'rsatuvchi asosan g'arb dunyosiga tegishli kiyimlar, boshqa tomondan bo'lsa, hamma tomonlari berk, qop-qora rangdagi sharq hijoblari urf bo'lgan edi. Aslida esa bunday libos diniy emas, balki, kelib chiqishi jihatidan tabiiy-geografik muhit bilan bog'liq bo'lgan libosdir. Hijob arablar istiqomat qiladigan hududda keng tarqalgan bo'lib, tabiiy-geografik sharoit ularni shunday kiyinishga majbur qilgandi. Chunki, ushbu mintaqalarda doimiy bo'lib turadigan chang-to'zonlar, keskin issiq, jazirama havo ularni muttasil tarzda o'z tanasining barcha qismini o'rab yurishlarini taqozo etgan. Biroq, arablarning mavjud iqlimga mos libosi ayrim shaxslarning xato tashviqoti ta'sirida diniy kiyim sifatida targ'ib qilinmoqda. Aslida esa ushbu libosning islom dini tartib-qoidalari bilan mutlaqo aloqasi yo'q[8].

Xulosa. Umuman olganda, voha o'zbeklarining milliy milliy kiyim-kechaklari bilan bog'liq mulohazalar yakunida shuni alohida ta'kidlash joizki, kiyim-boshlar o'ta uzoq tarixiy davr davomida shakllanib, u yoki bu etnos yashagan geografik muhit, uning xo'jalik turmush tarzi hamda ijtimoiy munosabatlari, madaniyati, etnik qatlamlari va boshqa qator omillar bilan bir qatorda kiyimlarni bichish, tikish va kiyish bilan bog'liq turli xil marosimlar, urf-odatlar ham shakllanib borgan. Kiyimlar bilan bog'liq urf-odatlarda nafaqat xalqona tasavvurlar, balki,

qadimiy afsungarlik hamda totemistik e'tiqodlar bilan birga islomiy qarashlar asosida ham tarkib topgan va milliy meros tarzida ajdodlardan-avlodlarga an'ana tarzida o'tib kelavergan.

Farg'ona o'zbeklari moddiy madaniyati ekologik jihatlari masalasiga xulosa o'rnida aytish mumkinki, moddiy madaniyat eng asosiy komponentlarini tashkil qilgan – xalqona turar-joy, milliy kiyimlar va milliy taomlarda insoniyat sivilizatsiyasining eng dastlabki alomatlari alohida aks etishi bilan birga, ulardagi tabiiy-geografik muhit, xo'jalik turmush tarzi, etnik jihatdan o'ziga xoslik hamda turli davrlarga xos bo'lgan diniy e'tiqod shakllari ham saqlanib qolavergan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Токарев С. А. К методике этнографического изучения материальной культуры // СЭ. 1970. – № 4. – С. 3.
2. Аширов А., Атаджанов Ш. Этнология. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 57 – 58.
3. Maget M. Guide detude directed escomportement sculpturels. – Paris, 1953. – P. 15 – 16.
4. Нозилов Д. Чиғаноқ ичида марварид // Совет Ўзбекистони санъати. 1981. № 9. – Б. 24.
5. Чебоксаров Н. Экология и типы традиционного сельского жилища / Типология основных элементов традиционной культуры. – М., 1984. – С. 34 – 64.
6. Аширов А. Ўзбек халқи анъанавий турмуш тарзида қадимий диний эътиқодлар билан боғлиқ маросим ва урф-одатлар... – Б. 34.
7. Содиқова Н. Ўзбек миллий кийимлари. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б. 6.
8. Давлатова С. Ўзбек миллий кийимлари... – Б. 138 – 139.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).